

TAFAKKUR TURLARIDAN TA'LIMDA FOYDALANISH MASALASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15639556>

Mahfuza To'ychiyeva

mahfuza.t.u@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-8965-2325

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti ,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashning shakllantirishning ahamiyati, yo'llari haqida so'z yuritiladi. Tafakkurning boshqa shakllari bilan munosabati, farqli va umumiy jihatlari haqida mulohaza yuritiladi. Ulardan nisbatan keng o'rganilgani mustaqil fikrlash haqidagi tadqiqotlar ekanligi, ular asosida fikrlashning boshqa, xususan o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltirishda ham e'tiborga olish mumkin bo'lgan nuqtalar borligi ko'rsatiladi. Mantiqiy tafakkur va boshqa tafakkur turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish kognitiv resurslarni samarali qo'llash va faoliyatning turli sohalarida eng yaxshi natijalarga erishish uchun zarurdir, chunki mantiqiy tafakkur fikrlarimiz va xatti-harakatlarimizning oqilonaligi, izchilligi va asoslilikini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda tafakkurning barcha turlari tashqi dunyodan yoki ichki tajribadan olingan ma'lumotlarga tayanadi, idrok etish, diqqatni jamlash, xotirada saqlash va axborotni qayta ishlash kabi kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Muammoni yechish, g'oyani yaratish yoki tushunchani anglash kabi ma'lum bir maqsadga erishishga qaratilgan. Ularni mashq qilish va o'rganish orqali rivojlantirish va takomillashtirish mumkin. Mantiqiy fikrlash haqiqatni aniqlash va xulosalarni asoslashga qaratilgan, izchillik va asoslanganlikni talab qilishdan adabiy ta'limda foydalanish masalasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, tafakkur, ta'lim, adabiy jarayon, axborot, kognitiv jarayon, muammo, o'quvchi

Abstract: The article discusses the importance and methods of developing logical thinking in the educational process. It examines the relationship between logical thinking and other forms of thinking, highlighting their differences and similarities. The article notes that studies on independent thinking are among the most extensively researched, and these studies provide insights that can be applied to guiding students towards logical thinking. Understanding the interconnection between logical thinking and other types of thinking is essential for effectively utilizing cognitive resources and achieving optimal results in various fields of activity, as logical thinking plays a crucial role in ensuring the rationality, consistency, and validity of our thoughts and actions. In general, all types of thinking rely on information obtained from the external world or internal

experience, involving cognitive processes such as perception, concentration, memory retention, and information processing. They are aimed at achieving specific goals, such as problem-solving, idea generation, or concept comprehension. These thinking skills can be developed and enhanced through practice and learning. The article explores the application of logical thinking, which is focused on determining truth and substantiating conclusions, in literary education, particularly considering the requirements of consistency and validity.

Keywords: *logical thinking, thinking, education, literary process, information, cognitive process, problem, student*

KIRISH. Tafakkur - bu bizga atrofimizdagi dunyoni tushunish, ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni yechish va qarorlar qabul qilish imkonini beradigan murakkab kognitiv jarayondir. Tafakkurning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va muayyan vaziyatlarda qo'llaniladi. Fikrlash - bu aqliy faoliyat mahsuli. Fikrlash merosiy tushuncha, u barcha insonlarga xos. Falsafa, pedagogika, psixologiyaga doir adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari ajratib ko'rsatiladi. Har biri o'zining tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda, qaysi birlarini asosiy deb qarashga moyildirlar. Asosiy turlardan biri bo'lgan mantiqiy tafakkur fikrlarimiz va xatti-harakatlarimizning oqilonaligi, izchilligi va asoslilikini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mantiqiy tafakkur mantiq va deduksiya tamoyillariga asoslangan izchil va asosli mulohaza yuritish bilan tavsiflanadi. U berilgan asoslardan xulosa chiqarish imkonini beruvchi qoida va qonunlardan foydalanishni nazarda tutadi. Mantiqiy tafakkur sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga va asoslangan xulosalar chiqarishga qaratilgan. Mantiqiy tafakkur va boshqa tafakkur turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish kognitiv resurslarni samarali qo'llash va faoliyatning turli sohalarida eng yaxshi natijalarga erishish uchun zarurdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ularning ichida nisbatan keng o'rganilgani mustaqil fikrlashdir. Psixologiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilgan Z.I. Nishonova mustaqil fikrlash - insonning bevosita o'ziga va o'zgalarning mavjudligiga bog'liq bo'lgan, uning tashqi ijtimoiy muhitning turli ta'sirlariga nisbatan fikr-o'ylari vositasida qarshilik ko'rsatish va o'z fikrini bayon etish qobiliyatidir deb izohlaydi. Adabiyot o'qitish metodikasi doirasida tadqiq qilgan Q. Husanboyeva "mustaqil fikrlash – insonning o'z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o'z intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir" degan ilmiy qarshni beradi. B. Xodjayev "Mustaqil fikrlash insonning muammoni, uni hal qilish yo'llarini o'zi ko'ra olishi va unga mustaqil javob topa olish qobiliyatidir. Mustaqil fikr tayyor mulohazalarga, boshqalarning fikrlariga qaram bo'lib qolmaydi. U voqelikni bilishga ijodiy yondashadi va uni o'rganishning yangi yo'llarini izlab topadi hamda yangi gipoteza va nazariyalarni keltirib chiqaradi deb ilmiy ta'rif beradi va individuallikni mustaqil fikrlashning muhim sharti deb

hisoblaydi. Demokratlashtirishda individuallik jamiyat oldidagi mas'uliyatlik bilan uyg'unlashadi. Individuallik shaxs o'zining xatti-harakatlari uchun javob bera olishini talab etadi. Erkin jamiyatda fikr va qarashlardagi xilma-xillikni tushunish va shunga intilishni rivojlantirish zarur. Bu murakkab vazifa, shu bilan birga intilish demokratik idealning mohiyatini tashkil etadi. Erkinlik - mustaqil fikrlash uchun qo'yilgan birinchi qadamdir. Mustaqil fikrning mavjuddigi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilarning erkinlik darajasiga bogliq. Mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun o'quvchilarning individual va jamoaviy darajada erkinligiga erishish zarur deb hisoblanadi.

Tafakkur turlarining o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishdan oldin, eng keng tarqalgan tafakkur turlarini qisqacha tavsiflash lozim.

Intuitiv fikrlash to'satdan tushunish yoki yechim topishga olib keladigan ma'lumotni ongsiz qayta ishlash jarayoniga asoslanadi. U tezligi, o'z-o'zidan yuzaga kelishi va aniq mantiqiy asoslanmasligi bilan ajralib turadi. Intuitsiya ko'pincha o'tmish tajribasi va ongosti assotsiatsiyalariga tayanadi.

Ijodiy fikrlash yangi va o'ziga xos g'oyalar, yondashuvlar va yechimlarni yaratishni o'z ichiga oladi. U tasavvur, fantaziya va narsalarni g'ayrioddiy nuqtayi nazardan ko'rish qobiliyati bilan bog'liq. Ijodiy fikrlash umumqabul qilingan me'yorlardan tashqariga chiqish va innovatsion yechimlar topish imkonini beradi.

Analitik tafakkur murakkab axborotni tarkibiy qismlarga ajratish, ularning har birini alohida tahlil qilish va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. U ma'lumotlarni baholash va talqin qilish uchun mantiq, statistika va boshqa vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Abstrakt tafakkur aniq obyektlar yoki vaziyatlarga bog'liq bo'lmagan mavhum tushunchalar, ramzlar va g'oyalar bilan ishlash qobiliyati bilan bog'liq. U murakkab tushunchalarni anglash, nazariyalar yaratish va muammolarni nazariy darajada hal qilish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash ma'lumotlar, dalillar va farazlarni faol va ongli baholash jarayonidir. U tarfkashlikni aniqlash, manbalarning ishonchliligini baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash mantiqiy fikrlashga tayanadi, ammo kontekst va mumkin bo'lgan cheklovlarni ham hisobga oladi.

Tafakkur turlari va mantiqiy fikrlash o'rtasidagi bog'liqlik haqida shuni aytish mumkinki, mantiqiy tafakkur yakka holda mavjud bo'lmaydi, balki boshqa tafakkur turlari bilan chambarchas bog'liqdir. Umuman olganda tafakkurning barcha turlari tashqi dunyodan yoki ichki tajribadan olingan ma'lumotlarga tayanadi, idrok etish, diqqatni jamlash, xotirada saqlash va axborotni qayta ishlash kabi kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Muammoni yechish, g'oyani yaratish yoki tushunchani anglash kabi ma'lum bir maqsadga erishishga qaratilgan. Ularni mashq qilish va o'rganish orqali rivojlantirish va takomillashtirish mumkin.

Ijodiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish jarayonida mantiqiy fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi. U fikrlarni tizimlashtirish, g'oyalarning amalga oshirilish imkoniyatlarini baholash va ularni hayotga tatbiq etish strategiyalarini ishlab

chiqishda ko'maklashadi. Mantiq, shuningdek, ijodiy yechimlarni tanqidiy tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda ham yordam beradi.

Mantiq tahliliy fikrlashning poydevori hisoblanadi. Mantiqiy tamoyillar va usullarni qo'llamasdan turib, ma'lumotlar va axborotni tahlil qilish mumkin emas. Mantiqiy fikrlash qonuniyatlarni aniqlash, sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish va mavjud ma'lumotlar asosida asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mantiqiy va mavhum fikrlash haqida yozganda shuni qays etish joyizki, mavhum tushunchalar va nazariyalar mantiqiy asoslash va izchil dalillashni talab qiladi. Mantiqiy fikrlash murakkab abstrakt modellarni yaratish, bu modellardan xulosalar chiqarish va ularning real hayotga mosligini tekshirish imkonini beradi.

Mantiqiy fikrlash tanqidiy fikrlashning zaruriy, ammo yetarli bo'lmagan shartidir. Axborot va dalillarni tanqidiy tahlil qilish uchun ziddiyatsizlik tamoyili, yetarli asoslash tamoyili va mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari kabi mantiqiy tamoyillarni qo'llash talab etiladi. Biroq, tanqidiy fikrlash, shuningdek, kontekstni, ehtimoliy tarafkashlikni va ma'lumotning ishonchliligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni hisobga olishni ham taqozo etadi.

Tafakkur turlarining o'zaro bog'liqlikka qaramay, mantiqiy fikrlash va boshqa fikrlash turlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Mantiqiy fikrlash haqiqatni aniqlash va xulosalarni asoslashga qaratilgan, izchillik va asoslanganlikni talab qiladi.

MUHOKAMA. Tafakkur turlaridagi umumiyliklardan kelib chiqib mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida farqlanganlarni mantiqiy fikrlashga ham tadbig' qilish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Fiziologik omillar
2. Psixologik omillar
3. Ijtimoiy omillar
4. Pedagogik omillar

Fiziologik omillar nerv tizimining reflektor faoliyati hamda oliy nerv faoliyatining yoshga bog'liq xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Dominantalar ko'pgina ruhiy jarayonlar bilan bogliq. Bular his etish, qabul qilish, fikrlash, xotira, xayol, diqqat kabilar bo'lib, ular faoliyatni ta'minlovchi bosh miya bo'lmalari vazifalarining mutanosibligini talab etadi. Bosh miya po'stlogidagi nerv markazlari qo'zg'atuvchilarining- asosiy manbayi bo'lgan chekka nervlaridan markaziy nerv tizimiga keluvchi qo'zg'alish oqimi(impuls)ni o'ziga tortuvchi va jamlovchi dominanta bir vaqtning o'zida boshqa nerv markazlari faolligini pasaytiradi. Bu esa inson xatti harakatlarida nima uchun bir maqsadga qaratilgan harakatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Mohiyat e'tibori bilan tug'ma, biroq hayot faoliyati natijasida tarbiyalanadi, toblanadi va maqsadga yo'naltirilgan harakatlar ta'siri ostida hamda atrofdan bo'ladigan jami ta'sir tufayli qayta quriladi. Bunga katta yarimsharlar po'stlog'ining o'ta qayishqoqligi va moslashuvchanligi sababli erishiladi.

Psixologik omillar.

Intellectual faoliyatining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellectual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji; idrok etishning rivoji; tasavvurlarning rivoji; diqqatning rivojini aks ettiradi. Fikrlashni shakllantirish emotsionallik bilan aloqadorlikdadir. O'quvchidagi salbiy his-tuyg'ularini yo'qotish, o'rnini ijobiylari bilan to'ldirish zarur

Ijtimoiy omillar. Fiziologiya va psixologiya fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron-bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbasi - layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, u go'yo "mudroq holat"da bo'lib, uning uyg'onishi - rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Muhit deganda kishiga ta'sir ko'rsatadigan tashqi voqealar yig'indisi tushuniladi.

Pedagogik omillar. Pedagogik omillar mantiqiy fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi eng muhim omillardir. Bulardan 4 tasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, o'quvchilarning o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligidir. Faqat maktab darsligi bilan mustaqil fikrlashga erishib bo'lmaydi. O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun qo'shimcha adabiyotlarni o'qishni tavsiya etish lozim. O'qituvchi shaxsi va pedagogik faoliyati

alohida o'ringa ega. Ta'lim mazmunining yangi g'oyalar bilan boyib borishi, ta'lim metodlarining doimiy takomillashuvi, o'qituvchilarning bilim saviyalarga qo'yilayotgan talablar - bularning barchasi o'qituvchidan bilimlarni muntazam to'ldirib borish va mustahkamlash, malakasini oshirish va metodik mahoratni talab etadi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri ta'limning mantiqiy fikrlashni shakllantirishga imkon beradigan shakl, metod va vositalarini tanlab olishdir.

XULOSA. Tafakkur o'zining nisbatan rivojlangan ko'rinishida voqelikni bilvosita va umumlashgan tarzda aks ettirish bo'lib, u inson miyasida uning amaliy faoliyati jarayonida amalga oshadi. Bu ta'rif, birinchidan, shuni anglatadiki, "fikrlar olami" inson miyasida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va alohida mavjud bo'lmaydi, balki o'zining muqarrar sharti sifatida "narsalar olami"ni, real dunyo voqeligini talab qiladi, undan bog'liq va u bilan belgilanadi. Voqelik, unga bog'liq, u bilan belgilanadi. Ikkinchidan, bu ta'rifda fikrlashning voqelikka bog'liqligi o'ziga xos tarzda ochib beriladi. Tafakkur - bu voqelikning in'ikosi, ya'ni moddiylikni g'oyaviy shaklda, fikrlar ko'rinishida aks ettirish. Agar voqelikning o'zi tizimli xususiyatga ega bo'lsa, ya'ni turli xil tizimlarning cheksiz to'plamidan iborat bo'lsa, tafakkur - universal aks ettiruvchi tizim bo'lib, unda o'zaro bog'liq va bir-biri bilan ta'sirlashuvchi o'z elementlari mavjud. Uchinchidan, ta'rifda aks ettirishning usuli ko'rsatiladi - bu bevosita sezgi a'zolari orqali emas, balki mavjud bilimlar asosida vositali ravishda amalga oshiriladi. Bunda bu aks ettirish umumlashgan xususiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida turli predmet va hodisalarning ko'pligini qamrab oladi. Va nihoyat, to'rtinchidan, ta'rifda tafakkurning eng yaqin va bevosita asosi ko'rsatiladi: bu voqelikning o'zi emas, balki uning o'zgarishi, mehnat jarayonida inson tomonidan o'zgartirilishi - ijtimoiy amaliyotdir. Tafakkurning eng yaqin va bevosita asosi: bu uning o'zi emas,

voqelikning o'zi, uning o'zgarishi, o'zgartirilishi mehnat jarayonida inson tomonidan bajarilishi - ijtimoiy amaliyotni hosil qiladi.

Mantiqiy tafakkur fikrlarimiz va xatti-harakatlarimizning oqilonaligi, izchilligi va asosliligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tafakkur turidir. U intuitsiya, ijodkorlik, tahlil, abstraksiya va tanqidiy fikrlash kabi boshqa tafakkur turlari bilan uzviy bog'liq. Tafakkurning bu turlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va farqlarni tushunish kognitiv resurslardan samarali foydalanish va faoliyatning turli sohalarida eng yaxshi natijalarga erishish uchun zarurdir. Mantiqiy tafakkurni, shuningdek, boshqa tafakkur turlarini rivojlantirish murakkab va tez o'zgaruvchan dunyoda fikrlashni shakllantirish, muammolarni hal etish va asosli qarorlar qabul qilishning muhim shartidir. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar turli xil fikrlash turlarining asosini tashkil etuvchi neurofiziologik mexanizmlarni o'rganishga, shuningdek, kognitiv ko'nikmalarni o'qitish va rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqishga qaratilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tuychieva, M. (2024). Using the Works of Alisher Navoi as Teaching Material. *SPAST Reports*, 1(1).
2. Tuychieva, M. U. (2023). PEDAGOGICAL, METHODOLOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ATTRACTING TEENAGERS TO FICTION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(11), 28-39.
3. Tuychieva, M. U. (2022). Taking Into Account the Specific Characteristics of the Adolescent in Literary Education.
4. Tuychiyeva, M. U. (2017). Features of research methods of presentation educational materials in the system of secondary specialized professional education. *www. auris-verlag. de*.